

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RLARIDA
KO'P QIRRALI AYOL OBRAZI

*Abduvaxidova Roxatoy Xoljigitovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Toshkent, Gavhar ko'chasi 1-uy
E-mail: sherzodtuychiyev28@gmail.com*

Abstract. Annotatsiya. *Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol obrazi va milliy o'zlik ifodasi o'ziga xos yondashuv bilan tasvirlanadi. Shoira o'z asarlarida o'zbek ayolining ruhiyati, or-nomusi va jamiyatdagi o'rni haqida chuqur mulohaza yuritadi. Uning she'riyati milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy ayollik tafakkurini o'zida mujassam etadi. Halima Xudoyberdiyevaning badiiy dunyoqarashi orqali o'zbek milliy o'zligining asriy an'analar va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi uyg'unligi yorqin namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Halima Xudoyberdiyeva, ayol obrazi, milliy o'zlik, o'zbek adabiyoti, she'riyat.*

Аннотация: *В творчестве Халимы Худойбердиевой образ женщины и проявления национальной идентичности отражаются с особым художественным подходом. В своих произведениях поэтесса глубоко размышляет о духовности, роли узбекской женщины и общества. Её поэзия объединяет национальные ценности, историческую память и современное женское мировоззрение. Через художественную мировоззрение Халимы Худойбердиевой ярко проявляется гармония между вековыми традициями узбекского народа и современным развитием.*

Ключевые слова: *Халима Худойбердыева, женский образ, национальная идентичность, узбекская литература, поэзия.*

Annotation: *In Halima Khudoyberdiyeva's creative works, the image of women and the expression of national identity are portrayed with a unique artistic approach. The poetess profoundly explores the spirituality, dignity, and social role of Uzbek women. Her poetry intertwines national values, historical memory, and contemporary female perspectives. Through Halima Khudoyberdiyeva's artistic worldview, the harmony between the ancient traditions of the Uzbek nation and modern development is vividly reflected.*

Keywords: *Halima Khudoyberdiyeva, image of women, national identity, Uzbek literature, poetry.*

KIRISH. *Adabiyot tarixida har davr o'zining alohida voqea-hodisalari, turfa evrilishlari, badiiy-estetik qiyofasi, milliy ruhiyati bilan o'ziga xos iz qoldiradi. XX asr*

o‘bekt she‘riyati ham adabiyot gulshanida jiddiy, ko‘lamli asarlari, salmoqli ijodkorlar yetishtirib bergan tarixiy-adabiy hodisa o‘laroq muhrlandi. Chunonchi, o‘tgan yuz yillikda yaratilgan asarlarda jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, inson tafakkuri va ruhiyatidagi yangilanishlar har qachongidan ham keng qamrovli bo‘ldi.

Bunga asr boshida dunyoda yuz bergan global o‘zgarishlar, imperiyalar qulashi, davlatlar boshqaruvidagi islohotlar, mamlakatlararo aloqalarning yaqinlashuvi, axborot va texnika, ilm-fanning beqiyos taraqqiyoti singari omillar eng avvalga planda ta’sir qilgan bo‘lsa, ular ortidan har bir sohada ham yangiliklar kirib keldi. Xususan, badiiy adabiyotning mumtoz lirik va epik turlari qatoriga dramatik tur, o‘z navbatida, ularning qator janrlari kirib keldi. Shunga ko‘ra ifoda tarzi, g‘oyalar olami, fikrlash yo‘sini ham yangidan yangi o‘zanlarga kirib bordi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Adabiyotning avvalgi zamonlarga qiyoslaganda, ommalashuvi kuzatildi. Bugun yangilik bo‘lgan hodisa tez fursatlarda an’anaga aylangani kitobxondan ham shiddatni, hamqadamlikni talab qila bordi va shunga o‘rgatdi.

O‘tgan asrning 60-yillarida adabiyot iqlimida yuz bergan o‘zgarishlar soha mutaxassislarining tegishli ishlarida qayd qilib borilgan.¹ Bulardan birini adabiy jarayonda ayol qalamkashlarning ijod maydoniga kirib kelishining oshib borishi bilan izohlash mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. 30-yillarda Zulfiyaxonim, Saida Zunnunova she‘rlari ila boyigan o‘zbek she‘riyatiga Oydin Hojiyeva, Gulchehra Nurullayeva, Zulfiya Mo‘minovalarning safida Halima Xudoyberdiyeva to‘marisona fidoiylik va o‘zbekona nafosat bilan karvonboshilik qildi.

Uning har bir bitigi samimiylik va milliylik ruhi bilan to‘yingan edi. Uning kitobxonga hitoblarida o‘zbek onasining, qizining, singilu momosining mehri, vafosi his etiladi. Yirik munaqqid Ibrohim G‘afurov shoironing “Buyuk qushlar” kitobiga yozgan so‘zboshisida: *“Uning she‘rlarida katta harflar bilan yoziladigan MUHABBAT bir yoniq siymo, ONA bir yoniq siymo, OTA yoniq bir siymo – bu siymolarini topgach, u o‘z tug‘ilgan yurtini, o‘zi mansub xalqni, uning fojia va sharaflarga to‘la bitmas-tuganmas tarixini tobora chuqurroq tushundi...”*², deydi. Olimning fikricha, bu siymolar Halima Xudoyberdiyevaning yuragida jozibador she‘riy timsollarga aylangan.

Shoironing qaysi she‘rini o‘qishga tutinmang, alal-oqibat ayol ruhiyati ko‘pqirrali kechinmalar dunyosi ekanligini kashf qilib boraverasiz. Inchunin, adabiyotning o‘zi ham inson qalbini ravshanlashtiruvchi tuyg‘ularining in‘ikosidir.

¹ Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. XX asr o‘zbek adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Yozuvchi”, 2000. - B. 218-220.; Hamdam U. O‘zbek va jahon adabiyotiga chizgilar. Monografiya, ilmiy maqolalar, esse-taqrizlar va ma’ruzalar) – T.: “Qamar Media”, 2026. – 291-297-betlar.

² G‘afurov I. Daryoning ovozi. So‘zboshi. Kitobda: Halima Xudoyberdiyeva. Buyuk qushlar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012. – B. 5.

Ayniqsa, lirika olam. Sheʼr – hayot voqea-hodisalariga estetik munosabatdan hosil boʻluvchi fikr va tuygʻularni ritmik nutq vositasida ifodalovchi lirik asar, shoir oʻy kechinmalari, tafakkurining mevasi. Shunday ekan, uni sinchiklab tekshirish orqaligina biz masala mohiyatiga chuqurroq kirib boramiz.

Chunonchi, Halima Xudoyberdiyeva ijodida chaqmoq kabi chaqnagan, momaqaldiraqdek gumburlagan, seldek toshib kelgan sheʼrlar talaygina. Shoira hayotning iztiroblarini, jamiyatdagi oʻzgarish va sinishlarni, millat taqdirini oʻzining kuchli tuygʻu va badiiy ilhomi bilan teran ifoda eta oldi. Uning sheʼrlarida hayot voqeligi, inson ruhiyati, xalq taqdiri ham kuchli, joʻshqin ohangda aks etadi. Biroq Halima Xudoyberdiyevaning ana shunday joʻshqin sheʼrlari orasida, alohida mavqega ega boʻlgan, ayol muhabbati va uning qudratini, ayolning nozik va samimiy qalb egasi ekanligini koʻrsatuvchi sheʼrlar ham muhim oʻrin egallaydi.

Zero, mazkur ijodiy ongda yuz bergan oʻzgarishlar haqida prof.

U.Hamdamning tubandagi fikrlari asoslidir: “Shunday qilib, XX asrda tubdan ijtimoiylashgan oʻzbek sheʼriyati badiiylik darajasi nuqtayi nazaridan ikkiga ajralmoqda: birinchisi davr muammolari sanʼatkorona aks ettirilgan, koʻpning dardi shoir dardiga, demakki, ijtimoiy dard shaxs dardiga aylangan – shaxsiylashgan (personifikatsiyalangan) sheʼriyat. Bunga Choʻlpon, Gʻafur Gʻulom, Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Raxmon, Xurshid Davron, Usmon Azim kabi shoirlar sheʼriyati misol boʻla oladi”³.

Onam maʼyus majnuntol edi,

Shoxchalari yer tomon boqqan.

Turishlari siru, fol edi,

*Toʻlqinlarga qoʻshilib oqqan.*⁴

Nafaqat oʻzbek, balki turkiy xalqlar, hatto aytish mumkinki, butun Sharq onalarida mujassamlashgan kamtarlik, kamsuqumlik, xokisorlik fazilatlari ilk misrada “mayus majnuntol”ga tashbehlanmoqdaki, shoxchalari yer tomon boqqan mazkur daraxtni koʻz oldiga keltirgan kitobxon mutaassir qoladi, albatta. Turmushning mashaqqatlari-yu, farzand oʻstirishning qiynoqlari, jigarbandining yoʻliga koʻz tikib oʻtkazgan sogʻinch faryodlari, turmush oʻrtogʻi va uning yaqinlariga xizmat qilmoq yuki, kelinlikdan ortib oʻz ota-onasiga farzandlik burchlarini ado etishda duch kelgan toʻsiqlarni jimgina ichiga yutib, nolimay, sir toʻla nozik vujudi ila hayot dengizida oqib oʻtgan va oʻtayotgan Onalar qiyofasi keyingi ikki satrda mahorat bilan tasvirlangan.

Ha, shoira inson yuragiga yaqin mavzularni ilgʻab olib, ularning yangi-yangi qirralarini ochishga intiladi. Uning sheʼriy olamida ayol qiyofasi faqatgina mehr va sadoqat timsoli emas, balki kuch va irodaning, sabr-toqat va matonatning ramzi sifatida namoyon boʻladi. Halima Xudoyberdiyeva oʻz sheʼrlarida tarix sahifalaridan

³ Hamdam U. Yangi oʻzbek sheʼriyati. Monografiya. – T.: “Adib”, 2012. – B. 83.

⁴ Xudoyberdiyeva H. “Suv bilan sirlangan kunim” //“Buyuk qushlar” T.: “Oʻzbekiston”, 2012. B. 607.

Nodirabegim, Uvaysiy, To‘maris kabi buyuk ayollar siymosini jonlantirib, ularning fazilatlari, jasorati va ruhiy kuchini zamonaviy o‘zbek ayolining obraziga singdiradi. Ayniqsa, olovqalb shoira Uvaysiyning “Qayda dard eli bo‘lsa muftalo Uvaysiyman” she‘riga tazmin yo‘lida yaratgan mana bu nazm namunasida Halimaxonim yuragidagi ulkan g‘ussa shundoqqina ko‘chib o‘tgandek:

*Nodirai davron-ku surardilar davronni,
She‘r ila kuylatardi xalqiyu Umarxonni.
Nechun kun kelib u ham jallodg‘a berdi jonni,
Hatto Mohlaroyimday oyim bebaxt, momojon,
Ayting, kimga baxt bergan bu she‘riy taxt, momojon.*⁵

Yana boshqa bir o‘rinda AYOL timsolida bir-biriga o‘xshamagan qahramonlar bo‘y ko‘rsatadi:

*Men uning tumorini jonimga tumor etdim,
Tinib, qizib oqarib-qonimga tumor etdim,
Ko‘ngil otlig‘ shohimga, xonimga tumor etdim,
To‘marisdek osmonda balqqan ayol o‘lmaydi.*⁶

Shoira bu misralari orqali To‘marisning izdoshi ekanligini, uning kabi bardoshi, og‘ir sinovlarga ham dosh bera oladigan kuchli, matonatli ayol ekanini aytib o‘tadi. Ayni sinovli kunlarda To‘marisning tumorini qalbiga tumor qilib olganini ham unutmaydi. Men uning tumorini jonimga tumor etdim, deganda shoira o‘zi haqida so‘zlaydi.

O‘tgan asrning katta nosiri Odil Yoqubovning xotiralari nihoyatda samimiy ham asoslidir: “*Hamon yodimda, Halimaxon she‘riyatimizga bahor toshqinlariday kirib kelgan edi. O‘tgan fursat ichida shoiramiz o‘ziga xos bir olam yaratishga muvaffaq bo‘ldikim, bunday baxt katta qalb sohibi iste‘dodlargagina nasib etadi. U yaratgan asarlar tabiatiga nazar solsangiz, ayol qalbidagi kechinmalarning sharqona iboli ifodasi-yu tuyg‘ularning Ovrupaga xos oshkor yolqinlarini, onaning mahzun allasi-yu millatim deb kuyayotgan ko‘ngil unlari - barcha-barchasini ilg‘ay olasiz. Bu rostgo‘y she‘riyat shu jihati bilan bizga aziz va yashovchandir*”⁷ uning aksar she‘rlarida ayol sabr-bardoshi, yorga vafosi, jasorati, ruhiy irodasi yaqqol ko‘rinadi.

Aslida, shoira hayoti davomida uchragan to‘siqlarni mardonavor yengib o‘tishga o‘zida ruhiy kuch va jasorat topa olgan ayoldir. Uning yozishicha, “To‘lib oqqan qon daryosin ichida ham, Chappar urib, ko‘zni olib gullovchi” o‘lim bo‘lmish daraxt bo‘lmog‘i shartdir. Boshim turli malomatlariga qoldi. Ishxonamda “ishga noloyiq” deb to‘polonlar uyushtirildi. Xuddi shu mazmunda markazqo‘mga, Maskovga xat ketidan

⁵ Xudoyberdiyeva H. Saylanma. She‘rlar. – T.: “Sharq”, 2000. – B. 173.

⁶ Xudoyberdiyeva H. Saylanma. She‘rlar. -T.: “Sharq”, 2000. - B. 45.

⁷ Yoqubov O. “Yoshlik” jurnali, 1997-yil №1-6. B. 11.

xatlar ketdi. Jurnal tahririyatini tekshiruvchi komissiya ketidan komissiya bosdi. Markazqoʻmning mafkura boʻlimida muhokama qilindim...

Eng ogʻir damlarda bolaligimda onaizorim oʻrgatgan duo madadga keldi: “Karamingdan aylanay, xudojon, bundan battaridan saqla”⁸. 1987-yilda yozilgan “Ishonch” sheʼridan olingan mana bu parchani shu chidab boʻlmas pajmurda holning soʻzdagi surati, deyish mumkin:

*Koʻkaradi bosilgan ne boʻlsa hayotda
Bosilgan qir koʻkarmasa sen koʻkarmasding
Hech narsa koʻkarmagan kabi yuribsan sen otday
Necha marta oyoq osti qilingan doʻstim –
Ular seni yengolmaydi, bosib boraver
Nari borsa tuzoq tashlar har muyulishda.
Nari borsa... koʻz yoshingdan koʻklab ketar yer
Nari borsa yuragingni chiqarar ishdan...⁹*

Inson Allohdan madad soʻrab yoʻq joydan ham koʻkara bilmogʻi, qad koʻtara olmogʻi lozimligi haqida soʻzlamochi. Dushman doim dushmanligini qilaveradi. U qanchalik oʻz nafsi yoʻlida tuzoq tashlamasin, Alloh doim haq inson tomonda. U har dardni, tuhmatni koʻtara oladi. Chekinmaydi, tuhmatlarga chidaydi. Kun kelib haqiqat qaror topishiga chin dildan ishonadi. Bu ham oʻzbek ayolininggina sabr-bardoshidan dalolatdir.

Halima Xudoyberdiyeva sheʼriyatining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari borasida soʻz ketganda, eng avvalo, eʼtibor qaratiladigan jihatlardan biri uning yangi oʻzbek adabiyotida ayol dardi, oʻzbek ayoli dardini ochiq oydin, baralla kuylaganligida koʻzga tashlanadi. Shoira bu ulkan DARDning ijtimoiy-psixologik omillarini turkum sheʼrlari bilan batafsil koʻrsatishga erishdi:

*Onaginam!
Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol,
Qayon boqsang, shaylanishar va sozlashar tor.
Olcha gulin koʻzlaringga surtasan behol:
Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor.¹⁰*

“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”, deb shukronalik bilan pichirlayotgan lirik qahramon goʻyoki sabr-u bardoshlardan yaralgan onalar obrazidek taassurot qoldiradi.

Sheʼrdan sheʼrga oʻtilgani sari ayol naqadar sabr-matonatli, vafodor, sirli bir tilsimligi yanada boʻrtib chizila borgan. Ayol har holida boriga shukur qiladigan,

⁸ Halima Xudoyberdiyeva “Oʻzim haqimda”. – “Yoshlik” jurnali, 1997-yil №1-6 (1)son. B. 14

⁹ Halima Xudoyberdiyeva “Oʻzim haqimda”. – “Saodat” jurnali, 1997-yil №1-6. B. 14

¹⁰ Xudoyberdiyeva H. Saylanma. Sheʼrlar. -T: “Sharq”, 2000. - B. 14.

yog'ida sabr qiladigan, berganiga ko'nadigan, yo'qdan go'zallik yarata oladigan sirli va nozik xilqat.

“Ayol – ONA! U vujudida bir parcha go'shtni ulg'aytirib, voyaga yetkazib farzandi uchun borini hadya qiladi. Uning ruhiyatiga, uning qalbiga kirib borish, uni tushunish Olamning eng qadimiy sirlaridan birini yechish bilan barobardir. Chunki ayol siymosida sir yashirin. Bu esa ijodkordan katta mehnatni, fidoyilikni talab qiladi. Halima Xudoyberdiyeva mana shunday ayol dardini, holatini, nozik qirralarini ijodida ko'rsatib bera oladigan ruh tarjimoni desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoiraning she'rlarini o'qir ekanmiz, bir-biriga o'xshamagan mavzularni uchratishimiz mumkin”¹¹

Ayol necha asrlik she'riyat tarixining yuragi bo'lib kelgan. Halima Xudoyberdiyevaning bir suhbatidagi mulohazalari vijdonli insonni o'yga toldirmay qolmaydi: "Odam hamma haqida o'ylar ekan, bir ishi tushadigan odam haqida o'ylar ekan, lekin uyimizda o'tirgan onamiz esimizga kelmas ekan. Yoki biror bir uchrashuvda o'zingga juda ishtiyoqmand odamlarni bo'lishni o'ylar ekansan, lekin uyingda o'tirgan onangni birinchi olib borib o'tqizib qo'yishni hamma ham o'z vaqtida o'ylamas ekan. Mana shunday achchiq narsalar boshimdan o'tganidan keyin yozilgan she'r. O'z onam va barcha o'tgan onaizorlar xotirasiga:

*Yaproqlari suvga yozdi xat,
Boshlab qaydan qaytdi bilmadim.
Shivirlashdi suv bilan faqat
Ammo,
nima aytdi bilmadim.
Ovoz olib demadi “Yohu”
Na yig'lab.
Na bag'rin tig'ladi.
Faqat suvga dardin aytdi u
“Sirqirashib suvlar yig'ladi”.
Bilmaganman
Chiqmagan uni.
Qay yuk bosgan bosiq boshimni.
Shu suv bilan
Sirlashgan kuni
Ko'tarolmam manam boshimni”¹²*

Bundan ko'rinib turibdiki, har kim o'z hayot tashvishi bilan bo'lib, yo'llariga intizor bo'lib ko'z tikib o'tirgan ona yodidan chiqib qolishi ko'pchilik uchun tabiiy hol, albatta. Ona – mo'tabar zot. Ona borki, olam munavvar. Ona bir qo'lida beshikni

¹¹ www.bbc.co.uk/uzbek Xudoyberdiyeva H. “Sirlashuv”.

¹² Manba: www.bbc.co.uk/uzbek

tebratsa, bir qo'lida dunyoni tebratadi. Ona doim farzandini o'ylaydi, uning uchun qayg'uradi, g'am chekadi. "Ona bo'lsang, onaning qadriga yetasan" deyishadi. Onasi bo'lib ham ish, turli xil yumushlar tufayli vaqtida xabar ololmay qolasan kishi. Buni qachonki, shoira tili bilan aytganda, ona diydorini sog'ingan kishigina his qila oladi. Ona shunchalik sabrliki, qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar, qo'li doim duoda, sabr ila jigargo'shasini kutadi. Ona shunchalik matonatliki, himmat, qanoat, sabr, shukr, sog'inch, nomus, hayo xislatlarini ma'rifat, ya'ni Alloh vasliga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etiladiki, barchasi unda mujassam.

Shoira o'z she'rlarida "Yurak shoirasiman... Ayol muqaddas!" deya e'lon qiladi va ayol sha'ni, qadri va shon-shavkati uchun ilhom bilan madhiyalar aytadi. U ayolni ojizlik va befarqlik puchmoqlaridan olib chiqib, uning chinakam hayotbaxsh qudratini, ma'naviy go'zalligini va iroda kuchini yuksak badiiylik bilan tarannum etadi. Ayol obrazini faqatgina nozik va mehribon emas, balki irodali, jasur, hayot sinovlariga bardoshli inson sifatida ko'rsatadi.

*Oshiqlaring poyingga gul otib ham bo'ldi,
Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo'ldi.
Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo'ldi,
Sen baribir muqaddassan, muqaddas ayol.¹³*

Shoira ijodining gultojiga aylangan "Muqaddas ayol" she'ridan olingan yuqoridagi parcha o'qirmanni avval o'zining samimiyligi, ilhomning beg'uborligi va badiiy kuchi bilan ta'sirlantiradi, keyin yuragini larzaga soladi, oxirida qalbda ularga nisbatan katta ehtiromni tug'diradi. She'rdan murod shu aslida. Sababi aniq: asarda ayol siymosi nafaqat ona, muhabbat va sadoqat ramzi sifatida, balki hayotning asosi, hayotbaxsh kuch sifatida ulug'langan.

Yuqoridagi ayrim she'riy tahlillardan ko'rinadiki, adabiy asarlarning eng ta'sirlisi, eng go'zali, eng jozibalisi ayol siymosi aks etgan, ona mehr-muhabbati tarannum qilinganlaridir. Bu obrazda bashariyatning muqaddas tuyg'ulari — mehr, sadoqat, sabr, fidoyilik va hayotga muhabbat ifoda topadi. Ayol qalbining nozikligi, uning sezgirligi va mehr-muhabbatga to'la olami badiiy asarlarga ruh, hayot va ilhom baxsh etadi.

Xulosa. Ma'lum bo'ladiki, Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridagi ayollar qiyofasi tasvirlangan obrazlar millatning fitratiga, uning ma'naviy qadriyatlariga, davr ruhiga muvofiq tarzda aks etgan va idrok qilingan.

Shuningdek, har bir davr, har bir adabiy maktab o'z ayol idealini yaratarkan, qadim zamonlarda ayol siymosi mehribon ona, sadoqatli yor sifatida tasvirlangan bo'lsa, yangi davr adabiyotida u faollik, bilimdonlik va mustaqil fikrlash timsoli sifatida gavdalantirilmoqda. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida esa bu qiyofalar

¹³ Xudoyberdiyeva H. Muqaddas ayol. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. – B. 270.

uyg'unlashgan holda, zamonaviy va tarixiy qiyofa, orzu va haqiqat mukammal tarzda bir-biriga qo'shib, o'ziga xos badiiy manzara yaratadi.

Shoira "Muqaddas ayol" she'rida ayolni oddiy bir inson sifatida emas, balki yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan, jamiyat hayotida muhim o'rin tutuvchi shaxs sifatida ulug'laydi. Bu yondashuv adabiyotimizda ayol obrazining tobora kuchliroq, mustaqilroq va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan qiyofaga aylanganini ko'rsatadi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodi orqali biz nafaqat o'zbek ayolining ruhiy dunyosini, balki xalqimizning qadimiy va zamonaviy qadriyatlarini ham chuqur his etamiz. Shoira ayol obraziga hayot va adabiyot qiyofasini bergan, uni zamon ruhi bilan uyg'unlashtirib, abadiylikka daxldor qila olgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. XX asr o'zbek adabiyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Yozuvchi", 2000. - B. 218-220.;
2. Hamdam U. O'zbek va jahon adabiyotiga chizgilar. Monografiya, ilmiy maqolalar, esse-taqrizlar va ma'ruzalar) – T.: "Qamar Media"R, 2026. – 291-297-betlar.
3. G'afurov I. Daryoning ovozi. So'zboshi. Kitobda: Halima Xudoyberdiyeva. Buyuk qushlar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2012. – B. 5.
4. Hamdam U. Yangi o'zbek she'riyati. Monografiya. – T.: "Adib", 2012. – B. 83.
5. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. She'rlar. – T.: "Sharq", 2000. – B. 173.
6. Yoqubov O. Halima Xudoyberdiyeva "O'zim haqimda".- "Yoshlik" jurnali, 1997-yil 1-6 (1). - B. 11.
7. Halima Xudoyberdiyeva "O'zim haqimda". // "Saodat" jurnali, 1997-yil №1-6 son.
8. www.bbc.co.uk/uzbek
9. Halima Xudoyberdiyeva. Muqaddas ayol.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
10. Xalova Maftuna Abdusalomovna. She'riyatda ayol qalbi. Xorijiy filologiya jurnali. <http://samxorfil.uz/>
11. Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar.- T. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. B.6
12. Ibrohim G'afurov. "Halima ruhoniyyati" "Xalq so'zi" 2019-y. 22-fevral.
13. **Manba:** www.bbc.co.uk/uzbek/
14. **Manba:**www.bbc.co.uk/uzbek/
15. Halima ruhoniyyati - Xalq so'zi. <https://xs.uz/uz/post/halima-ruhoniyyati>

16. Halima Xudoyberdiyeva. She'rlar & Eng qora ish, eng toza ish — bizning ishimiz... | Xurshid Davron kutubxonasi <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborakin/halima-xudoyberdiyeva-eng-qora-isheng-toza-ish-bizning-ishimiz.html>
17. G.Eshniyozova. “Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida qo'llanilgan leksik birliklar”. Scientific progress. www.scientificprogress.uz 527-529-betlar.
18. Xalova M, F.Sadinov. “Yuragida yo'lbars yotgan ijodkor” <https://worldlyjournals.co>